

2023- yilda yurtimizda o'tkaziladigan aholini ro'yxatga olish tadbiriga puxta tayyorgarlik ko'rilmoqda. Mazkur tadbir bizga nima beradi?



2023- yilda yurtimizda o'tkaziladigan aholini ro'yxatga olish tadbiriga puxta tayyorgarlik ko'rilmoqda.

Mazkur tadbir bizga nima beradi?

Aholi sonini ro'yxatga olish mamlakatda yashovchi barchaga tegishli bo'lgan demografik, iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, baholash, tahlil va e'lon qilishning yagona jarayonidir. U aholi to'g'risidagi ma'lumotlarning asosiy manbai bo'lib, kelgusi 10-20 yillik rivojlanishning prognoz ko'rsatkichlarini hisoblash uchun ishonchli poydevor yaratadi. Aholi migratsiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar shakllantiriladi.

O'z navbatida, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi, ayollar va bolalar salomatligini yaxshilash va oilalarga yordam ko'rsatish bo'yicha dasturlarni

manzilli ishlab chiqishda axborot tarzida foydalaniladi. Aholi sonini ishonchli hisoblash bo'yicha rasmiy statistika tizimida asosiy rol o'ynaydi.